

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.11/2025.27.12.San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

MUFTI-ZADE GULCHEHRA ANVAROVNA

**JAMIYAT IJTIMOIIY-MADANIY HAYOTIDA
RAMZLARNING O‘RNI**

17.00.07 – Madaniyat nazariyasi va tarixi. Madaniyatshunoslik

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Содержание автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of abstract of the doctor of philosophy (PhD) dissertation

Mufti-zade Gulchehra Anvarovna

Jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotida ramzlarning o‘rni 3

Муфти-заде Гулчехра Анваровна

Роль символов в социально-культурной жизни общества 23

Mufti-zade Gulchehra Anvarovna

The role of symbols in the socio-cultural life of society 47

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 51

**O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.11/2025.27.12.San.02.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH
ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

O‘ZBEKISTON DAVLAT SAN’AT VA MADANIYAT INSTITUTI

MUFTI-ZADE GULCHEHRA ANVAROVNA

**JAMIYAT IJTIMOIIY-MADANIY HAYOTIDA
RAMZLARNING O‘RNI**

17.00.07 – Madaniyat nazariyasi va tarixi. Madaniyatshunoslik

**SAN’ATSHUNOSLIK FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.4.PhD/San427 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.dsmi.uz) hamda "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Sayfullayev Nodirbek Baxtiyorovich
tarix fanlari nomzodi, professor

Rasmiy opponentlar:

Qo'ldoshev Sherali Temiraliyevich
tarix fanlari doktori (DSc), dotsent

Yusupova Marina Rimovna
san'atshunoslik fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:


Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.11/2025.27.12.San.02.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik Ilmiy kengashning 2026-yil 24-avgust soat 10.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-"A" uy. Tel.: (+99871) 230-28-02; faks: (+99871) 230-28-15); e-mail: uzdsmi@madaniyat.uz).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (56-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100164, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumani, Yalang'och dahasi, 127-"A" uy. Tel.: (+99871) 230-28-58; faks: (+99871) 230-28-15).

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil 27-iyul kuni tarqatildi.

(2026-yil 27-iyuldagi 23-raqamli reyestr bayonnomasi).



M.T.Tulyaxodjayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
san'atshunoslik fanlari doktori, professor

J.A.Mamatqosimov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotiibi, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD), professor

A.A.Umarov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, sotsiologiya
fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda kechayotgan global o'zgarishlar, axborot oqimining keskin ortishi va madaniy tafakkurning yangilanishi sharoitida jamiyatning ijtimoiy-madaniy hayotida ro'y berayotgan jarayonlar madaniyatshunoslik fanining asosiy tadqiqot yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. Ramzlar alohida semantik va g'oyaviy ahamiyat kasb etib, jamiyat tafakkurining mahsuli sifatida tarixiy xotirani, milliy ongini, axloqiy-estetik mezonlarni o'zida mujassamlashtirmoqda. Madaniyatning asosiy tarkibiy qismlaridan hisoblangan ramz, belgi, emblema tushunchalarining paydo bo'lishi, shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, zamonaviy holati, mamlakatning tarixi va kelajagi, shuningdek, jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotida tutgan o'rni va ahamiyatini madaniyatshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahon madaniyatshunoslik ilmida olib borilayotgan tadqiqotlarda ramzlarning ahamiyatini o'rganish – madaniy jarayonlarning markazlashuviga, ularning jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotidagi o'rnini aniqlashga, shuningdek transformatsiya va modernizatsiya jarayonlarini jadallashtirishga xizmat qilmoqda. Ramziy belgilar orqali ifoda etilgan har qanday madaniy faoliyat ma'lum bir g'oya, qadriyat yoki mafkurani o'zida mujassam etib, madaniy jarayonlardagi muayyan masalalarga ilmiy yondashuv asosida yechim topish, mavjud madaniy bo'shliqlarni to'ldirish imkonini yaratmoqda. Jamiyatda ramzlarning ijtimoiy muloqot va ijtimoiy birdamlikni ta'minlashdagi rolini tahlil qilish hamda ijtimoiy-madaniy tizimda ramzlarning paydo bo'lishi va shakllanish jarayonlarini aniqlash, badiiy madaniyat, san'at sohasida ramz, belgi, emblemalarning mafkuraviy-g'oyaviy mohiyatini asoslash zarurati yuzaga kelmoqda.

Yangi O'zbekistonning rivojlanish jarayonida milliy o'zlikni anglash, madaniy merosni asrab-avaylash, an'anaviy qadriyatlarni zamonaviylik bilan uyg'unlashtirish masalalari davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. "Insonning jamiyatdagi o'rni va qadr-qimmatini targ'ib etuvchi "Inson qadri uchun" ezgu g'oyasi asosida yangi sahna asarlari yaratish"¹ asosiy vazifa sifatida qo'yilmoqda. Bu jarayonda nafaqat davlat mafkurasining mohiyati, balki inson hayotining turli jabhalarini ifoda etishda, shuningdek, jamiyat ma'naviyati va estetik didini shakllantirishda muhim vosita bo'lgan ramzlarning jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotidagi o'rni va ahamiyatini o'rganish ustuvorlik kasb etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-yanvardagi O'RQ-668-sonli "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlar to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-maydagi PF-6000-son "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida", 2026-yil 30-yanvardagi PF-15-son "O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlar bilan madaniyat va turizm sohalaridagi aloqalarini yanada kengaytirish

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22-noyabrdagi PQ-399-son "Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 04.12.2024-y., 07/24/399/1000-son.

chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2018-yil 28-noyabrda PQ-4038-son "O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 2-fevralda PQ-112-son "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2024-yil 22-noyabrda PQ-399-son "Teatrlarning jamiyat madaniy hayotidagi ahamiyatini oshirish va ular faoliyatini yanada qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorlari va sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ramzlar qadimdan insoniyatni qiziqtirib kelgan. Ramzlarning tarixiy taraqqiyoti, semantik xususiyatlari va madaniy funksiyalari masalalari dunyo olimlari tomonidan keng tadqiq etilgan.

O'zbek olimlarining ilmiy izlanishlarida ramz va ramziylikning nazariy asoslari, milliy madaniyat va ma'naviy meros tizimidagi ahamiyati, shuningdek, badiiy tafakkurdagi ifodasi F.Boynazarov, N.Ismoilov, S.Karomatov, D.Mingboyeva, B.Normurodov, O.Sharofiddinovlar tomonidan o'rganilgan². O'.Ochilov, S.Olimov tadqiqotlarida davlat ramzlarining huquqiy maqomi masalalari tadqiq qilingan³. O'zbek folklorshunosligi va adabiyotshunosligida ramziy obrazlar va ular bilan bog'liq masalalar folklorshunos Sh.Turdimov, adabiyotshunos A.Sharopovlar tomonidan o'rganilgan⁴. S.Jumayeva, N.Jumatova, O.Ochilovlar o'zbek she'riyatidagi rang va raqamlar bilan bog'liq ramziy obrazlar va ularning ma'no talqinlarini o'rgangan⁵. A.Mavrulov, M.Mavrulova, A.Ochildiyev, U.Qoraboyevlarning ilmiy adabiyotlarida esa madaniyatning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rnini, milliy qadriyatlar va madaniy meros masalalari tadqiq qilingan⁶.

² Бойназаров Ф. Адабиёт гўзаллик рамзи. – Тошкент, 1989. – 28 б.; Исмоилов Н. Ватан рамзи, жасорат рамзи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1991. – 82 б.; Кароматов С. Гўзаллик рамзи. – Тошкент: Ёш гвардия, 1965. – 56 б.; Мингбоева Д. Тимсоллар тилсими рамз, белги ва тимсоллар тавсифи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2007. – 179 б.; Нормуродов Б.А. Тил ва адабиётда ранглarning рамзий аҳамияти. – Тошкент: Билим, 1987. – 24 б.; Шарофиддинов О. Мустақиллик меъмори Ислом Каримов сиймосига чизгилар ("Давлат ва миллат рамzlari" туркуми). – Тошкент: Адолат, 2003. – 38 б.

³ Очиллов Ў. Ўзбекистон Республикасининг давлат рамzlari (хуқуқий мақоми): Юрид. фан. ном. дис. автореф. – Тошкент, 2002. – 23 б.; Олимов С. Давлатимиз рамzlari. – Тошкент: Маънавият, 2002. – 40 б.

⁴ Турдимов Ш. Поэтические символы в узбекских народных лирических песнях: Автореф. дис. ... кан. фил. – Тошкент, 1987. – 20 с.; Шаропов А. Оламлар ичра оламлар. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. – 120 б.

⁵ Жумаева С. Ўзбек мумтоз шеъриятида рақам рамzlari ва уларнинг маъно талқини (XII-XV асрлар). Фил. фан. ном. дисс. – Тошкент: 2006. – 126 б.; Жуматова Н. Ҳозирги ўзбек шеъриятида ранг билан боғлиқ рамзий образлар. Фил. фан. ном. дисс. автореф. – Тошкент: 2000. – 24 б.; Очиллов О. VII-X асрлар танг даври шеъриятида рамzlari семантикаси. Фил. фан. фал. док. дисс. автореф. – Тошкент: 2018. – 20 б.

⁶ Маврулов А., Маврулова М. Маданият назарияси. – Тошкент: Donishmand ziyosi, 2023. – 351 б.; Очилдиев А. Маданият фалсафаси. – Тошкент: Мухаррир, 2010. – 112 б.; Қорабоев У. Маданият масалалари. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2009. – 286 б.

MDH mamlakatlari olimlaridan A.Veynmeyster, A.Ivanov, N.Kulagina, A.Losev, Yu.Lotman, V.Poxlebkina, V.Radlov, N.Sarancheva, Yu. Ten ramzlarning semiotik tabiati, madaniy kod sifatidagi xususiyatlari, ma'no hosil qilish mexanizmlari hamda madaniy kommunikatsiya jarayonlaridagi funksiyalarini o'rganganlar⁷.

Xorijlik olimlardan E.Kassirer, B.Teylor, V.Tyorner ilmiy tadqiqotlarida ramzlarning madaniyat tizimidagi o'rni, ijtimoiy munosabatlar va madaniy jarayonlardagi ahamiyati, shuningdek, madaniyatlararo muloqotdagi funksiyalari tadqiq etilgan⁸. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda ramzlar madaniy tafakkur mahsuli sifatida qaralib, ularning mifologik ildizlari, diniy-falsafiy mazmuni, antropologik funksiyalari, madaniyatlararo kommunikativ roli, lingvosemiotik strukturasi, badiiy-estetik ifodasi va ijtimoiy-ma'naviy funksional ahamiyati kabi jihatlari ilmiy tahlil etilgan.

O'zbekistonda zamonaviy madaniyatshunoslik doirasida ramzlarni inson ongida shakllanuvchi timsollar tizimi sifatida o'rganish, ularning jamiyat ma'naviy yuksalishi, milliy o'zlikni anglash va madaniy meros vorisiyligini ta'minlashdagi o'rnini ilmiy tahlil etish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ramzlarning jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotidagi o'rni hozirgi kungacha yaxlit konseptual yondashuv asosida tadqiq etilmagani, ayniqsa, masalaning madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan mustaqil ilmiy tadqiqot obyekti sifatida yetarlicha o'rganilmagani mazkur izlanishning ilmiy ahamiyatini belgilaydi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejasi bilan bog'liqligi. Dissertatsiya O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq, "Yangi O'zbekistonda milliy madaniyatni rivojlantirish strategiyasi: an'anaviy qadriyatlar va zamonaviy talablar uyg'unligida madaniyat va san'at sohasi mutaxassislarini tayyorlashning nazariy-konseptual asoslari" mavzusidagi ilmiy yo'nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ramzlarning jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotidagi o'rni va ahamiyatini hamda zamonaviy jamiyat taraqqiyotidagi rolini madaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan ochib berishdan iborat.

⁷ Вейнмейстер А. Символическая интерпретация культуры в концепции Э. Кассирера и А. Лосева. Автореф. дисс. кан. фил. наук. – Санкт-Петербург: Издательство СПб ГУ. 2006.; Иванов А. Символ. Современная западная философия. – Москва: Искусство, 1991. – С.276.; Кулагина Н. Символ как средство мировосприятия и миропонимания. Автореф. дисс. кан. фил. наук. – Санкт-Петербург: Изд. СПб ГУ, 2003.; Лосев А. Проблемы становления символа и реалистическое искусство. – Москва: Искусство, 1976. – С.42.; Лосев А. Логика символа. Философия, Мифология, Культура. – Москва, 1991. – С.258.; Лотман Ю. Семиосфера. – Санкт-Петербург: Искусство СПб, 2001.; Похлебкин В. Словарь международной символики и эмблематики. – Москва: Центрполиграф, 1995. – С.381.; Радлов В. Тамга. // Опыт словаря тюркских наречий. Т.3. Ч.1. – Санкт-Петербург: тип. Имп. акад. наук, 1905. – С.1003-1012., Радлов В. Туг // Опыт словаря тюркских наречий. Т.3. Ч.2. – Санкт-Петербург: тип. Имп. акад. наук, 1905. – С.1429-1435.; Саранчева Н. Символ как социокультурный феномен. Автореф. дисс. кан. фил. наук. – Волгоград, 2007.; Тен Ю. Символ в межкультурной коммуникации. Автореф. дисс. док. фил. наук. – Ростов-на-Дону: 2008.

⁸ Кассирер Э. Философия символических форм. Том 1. Язык. М.; СПб.: Ун. книга, 2002. 272 с.; Тейлор Б. Первобытная культура. – Москва: Наука, 1989. – С.76-80.; Тёрнер В. Символ и ритуал. – Москва: Наука, 1983.

Tadqiqotning vazifalari:

ramz tushunchasi, uning klassifikatsiyasi va ijtimoiy-madaniy asoslarini tavsiflash;

ijtimoiy-madaniy tizimda ramzlarning paydo bo'lishi va shakllanish jarayonlari hamda jamiyatda ramzlarning ijtimoiy muloqot va ijtimoiy birdamlikni ta'minlashdagi rolini tahlil qilish;

O'zbekiston ijtimoiy-madaniy hayotida ramzlarning, jumladan davlat ramzlarining o'ziga xos jihatlarini aniqlash hamda madaniy siyosat va ta'lim jarayonida ramzlardan foydalanish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;

badiiy madaniyat, xususan san'at sohasida ramz, belgi, emblemalarning mafkuraviy-g'oyaviy mohiyatini ochib berish;

Tadqiqotning obyekti sifatida jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotida ramzlarning o'rni va ahamiyatini o'rganish jarayoni tanlab olindi.

Tadqiqotning predmetini jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotida ramzlarning shakllanishi, amal qilishi va transformatsiya jarayonlari hamda ularning ijtimoiy ong, madaniy xotira va ijtimoiy munosabatlarga ta'siri tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tahliliy, tarixiy, qiyosiy, kuzatuv, sotsiologik va badiiy tahlil kabi usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ramz va belgilarning ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy-ma'rifiy kommunikatsiya tizimida jamoaviy identifikatsiya, fuqarolik birdamligi va umummilliy qadriyatlarni reprezentatsiya qilish funksiyalari aniqlanib, ularning jamiyatni umumiy maqsadlar atrofida integratsiyalash mexanizmi ekanligi asoslangan;

davlat ramzlarining milliy mustaqillik va suverenitetni ifodalovchi semiotik tizim ekanligi asoslanib, ulardagi rang, tasvir va madhiya matnining jamoaviy identifikatsiya, fuqarolik ongi hamda ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlarni shakllantiruvchi aksiologik, integrativ va kommunikativ funksiyalari aniqlangan;

ramzlarning ijtimoiy hayot sohalari bo'yicha differensial va kontekstual transformatsiyasi kabi funksional-semiotik xususiyatlari aniqlanib, ularning maishiy munosabatlarda kommunikativ, siyosiy jarayonlarda mafkuraviy-integrativ, madaniyat va san'atda esa voqelik hamda inson kechinmalarini badiiy-estetik reprezentatsiya qilish vazifalarini bajarishi dalillangan;

zamonaviy o'zbek spektakllarida ramziy kodlar va shartli-majoziy ifoda tizimining o'zaro uyg'unligi sahnaviy semiozisning ta'sirchanligini oshirib, tomoshabinning estetik qabul jarayoni hamda ijtimoiy-madaniy o'zini anglashini shakllantiruvchi omil ekanligi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ramzlarning jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotidagi o'rni va funksiyalarini izohlovchi ilmiy xulosalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi;

ramzlar va ramziylikka oid konseptual yondashuvlar takomillashtirilib, ulardan madaniy-ma'rifiy faoliyat va milliy o'zlikni mustahkamlashga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqishda foydalanish imkoniyati asoslandi;

"Jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotida ramzlarning o'rni" nomli so'rovnoma-anкета tarqatilib, javoblari ilmiy tahlil qilingan. Sotsiologik tadqiqot natijasida

xulosalar, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shuningdek, tadqiqot natijalari asosida o'quv-uslubiy qo'llanmalar, metodik tavsiyalar hamda ma'ruza matnlarini tayyorlash mumkin;

tadqiqot natijalari madaniyat va san'at muassasalari, jumladan, teatr, muzey, ko'rgazma va madaniy tadbirlar faoliyatida ramziy ifoda vositalaridan samarali foydalanish hamda madaniy kommunikatsiya samaradorligini oshirishga xizmat qilishi asoslandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ramzlarning jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotida tutgan o'rnini tadqiq etishda ilmiy manbalar va sotsiologik so'rovlarga tayanilganligi, ishlab chiqilgan ilmiy xulosa va takliflarning amaliyotga joriy qilinganligi, respublika va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tganligi, mahalliy va xorijiy ilmiy nashrlarda maqolalar e'lon qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va xulosalar ijtimoiy falsafa, madaniyatshunoslik, sotsiologiya va san'atshunoslik fanlarida ramz tushunchasi va uning jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotidagi o'rniga oid mavjud ilmiy-nazariy ma'lumotlarni chuqurroq o'rganishga, nazariy-uslubiy ishlanmalarni tayyorlashda namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati madaniy siyosat va ma'naviy-ma'rifiy ishlar targ'ibotida, ommaviy axborot vositalarida, oliy o'quv yurtlari talabalari va mutaxassislari uchun madaniyatshunoslik asoslari bo'yicha o'quv kurslar mazmunini boyitishda, darsliklar hamda o'quv qo'llanmalari tayyorlashda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ramzlar va ularning jamiyat ijtimoiy-madaniy hayotida tutgan o'rnini tadqiq etish yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

ramz va belgilarning ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy-ma'rifiy kommunikatsiya tizimida jamoaviy identifikatsiya, fuqarolik birdamligi va umummilliy qadriyatlarni reprezentatsiya qilish funksiyalari aniqlanib, ularning jamiyatni umumiy maqsadlar atrofida integratsiyalash mexanizmi ekanligi asoslanganligiga doir xulosa va takliflardan O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2025–2026-yillarda o'tkazilgan madaniy-ma'rifiy tadbirlarda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining 2026-yil 4-fevraldagi 02-11-20-423-son ma'lumotnomasi). Natijada, ilmiy-nazariy xulosalar ko'tarilgan mavzuning ma'naviy-tarbiyaviy xususiyatini oshirishga, ramziylik bilan bog'liq tushunchalar aniq etkazilishiga xizmat qilgan;

davlat ramzlarining milliy mustaqillik va suverenitetni ifodalovchi semiotik tizim ekanligi asoslanib, ulardagi rang, tasvir va madhiya matnining jamoaviy identifikatsiya, fuqarolik ongi hamda ijtimoiy-ma'naviy qadriyatlarni shakllantiruvchi aksiologik, integrativ va kommunikativ funksiyalari aniqlanganligiga oid xulosa va takliflardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot jarayonlarida samarali qo'llanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2026-yil 16-fevraldagi 10/111-son

ma'lumotnomasi). Natijada, davlat ramzlarining mustaqillik va erkinlik holatini ifodalovchi ijtimoiy hodisa ekani, ramzlardagi tasvir va ranglar hamda madhiyadagi badiiy matnning jamiyat a'zolarining ijtimoiy-ma'naviy salohiyati va g'oyaviy-siyosiy ongiga ta'sir mexanizmlarini ilmiy jihatdan yoritilishiga xizmat qilgan;

zamonaviy o'zbek spektakllarida ramziy kodlar va shartli-majoziy ifoda tizimining o'zaro uyg'unligi sahnaviy semiozisning ta'sirchanligini oshirib, tomoshabinning estetik qabul jarayoni hamda ijtimoiy-madaniy o'zini anglashini shakllantiruvchi omil ekanligi asoslanganligiga oid xulosa va takliflardan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan amalga oshirilayotgan ma'naviy-ma'rifiy targ'ibot jarayonlarida samarali qo'llanilgan (Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazining 2026-yil 16-fevraldagi 10/111-son ma'lumotnomasi). Natijada, ma'naviy-ma'rifiy targ'ibotda zamonaviy o'zbek spektakllarining ramziy-majoziy ifoda imkoniyatlaridan foydalanish hamda targ'ibot mazmunini takomillashtirishga xizmat qilgan;

ramzlarning ijtimoiy hayot sohalari bo'yicha differensial va kontekstual transformatsiyasi kabi funksional-semiotik xususiyatlari aniqlanib, ularning maishiy munosabatlarda kommunikativ, siyosiy jarayonlarda mafkuraviy-integrativ, madaniyat va san'atda esa voqelik hamda inson kechinmalarini badiiy-estetik reprezentatsiya qilish vazifalarini bajarishi dalillanganligiga oid xulosa va takliflardan "O'zbekiston tarixi" telekanalining "Vaqt mashinasi" ko'rsatuvda foydalanilgan (O'zbekiston teleradiokompaniyasi "Ma'rifat" birlashmasining 2026-yil 27-yanvardagi 01-33/65-son ma'lumotnomasi). Natijada, teleko'rsatuvda mavzuning atroflicha yoritilishiga, tomoshabinlarning badiiy adabiyot hamda teatr san'atida ramziylikka oid ma'lumotlar bilan kengroq tanishishiga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida jamoatchilik muhokamasidan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta, jumladan xorijiy jurnallarda 5 ta ilmiy maqolalar nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilova qismidan tashkil topgan. Dissertatsiya hajmi 141 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi, muammoning o'rganilganlik darajasi, maqsadi, vazifalari, obyekti va predmeti aniqlangan. Tadqiqot ishining fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi, tadqiqotning ilmiy yangiligi, natijalarning ishonchliligi, nazariy, amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy etilishi, e'lon qilinganligi, ishning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Ramzlarning paydo bo'lishi, shakllanishi va klassifikatsiyasi”** nomli birinchi bobi ikki bo'limdan iborat bo'lib, ushbu bobning **“Ramz tushunchasi, uning nazariy-konseptual va ijtimoiy-madaniy asoslari”** deb nomlangan birinchi bo'limi ramz tushunchasining mazmun-mohiyati, shakllanishi, uning nazariy-konseptual asoslari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab berilgan.

Ramzlar milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani saqlash va insonlar o'rtasida birdamlikni ta'minlashda katta ahamiyatga ega. U oddiy belgidan farqli ravishda ko'p qatlamli semantik mazmun kasb etib, madaniy muhit, tarixiy tajriba va ijtimoiy qadriyatlar tizimi bilan uzviy bog'liq holda talqin etiladi. Masalan, davlat bayrog'i, gerb yoki madhiya kabi ramzlar nafaqat muayyan belgilar majmuini, balki xalqning tarixiy xotirasi, milliy qadriyatlari va ijtimoiy birlik g'oyalarini ham ifodalaydi.

Madaniyat va ramzlar o'rtasidagi uzviy bog'liqlik shundan iboratki, ramzlar madaniyatning semantik va ijtimoiy qatlamlarini ifodalovchi vosita sifatida insonning yaratuvchilik faoliyati va ijtimoiy tajribasi bilan bevosita aloqadordir. Ular nafaqat ma'no uzatadi, balki shaxsning ma'naviy kamoloti, ruhiy-aqliy hayoti va ijtimoiy yo'nalishini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, ramzlar madaniyatning funksional elementlari sifatida inson faoliyati va jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy tizimi o'rtasida ko'prik vazifasini bajaradi. Ramzlar insoniyatni borliqqa, atrof-muhitga bo'lgan munosabatlarining g'oyaviy ixcham shaklidir. Ramziylikning vazifasi lo'ndalik. Ya'ni, ramzlar orqali ma'lum bir katta davr ichida bo'lib o'tgan voqea-hodisalarni ixcham shaklda aks ettirish demakdir.

Inson ongi hali murakkab mavhum tushunchalarni anglamay turib, yaratuvchanlik iqtidoriga ega bo'lmagan. U o'zining dastlabki tasavvurlarini ramzlashtirgan. Ibtidoiy odamda tasavvur qilish jarayoni ta'sirlanish, ya'ni sezish jarayoni bilan amalga oshirilgan. Chunki inson organizmidagi ko'rish, eshitish, hid bilish, ta'm bilish va his qilish a'zolarining narsa-hodisalarni sezishi hamda his qilishdagi vazifasi ramz tarixida yetakchilik qilgan. Ramzlarning ilk ko'rinishi va paydo bo'lishi ibtidoiy odam davridayoq uning hissiy bilishlari orqali vujudga kelgan. Ramzlarning inson faoliyatidagi ilk ko'rinishlari rang va ularni farqlash orqali yuzaga kelgan. Insoniyat iqtisodiy hamda madaniy jihatdan rivojlanib borgan sari, uning faoliyatidagi ramziy doira ham kengayib boradi.

Ramz – biror predmet, hodisa yoki holatning badiiy obrazli shaklidir. Ramz uchun narsaning faqat umumlashma mohiyatining o'zi kamlik qiladi. Narsa mazmunining ramzga aylanishi va umumlashma keng qamrovli miqyosga ko'tarilishi uchun undagi mazmun aniq bo'lishi shart. Shundagina bunday umumlashma, ya'ni

ramz narsaning o'ziga xos shakllantirilgan, tartibga solingan va hamma vaqt o'zida ma'lum bir g'oyani ifodalab turadigan ko'rinishidan iborat bo'ladi.

Yu. Lotman ramzga o'ziga xos ta'rif beradi: "Faqat o'ziga aloqador bo'lgan o'tmish xotiralarini kondensatsiyalashtira olgan va asragan hamda qayta yuzaga chiqadigan barcha belgilar ramzdir". Uning izohiga ko'ra, ramzning madaniy xotira vazifalarida namoyon bo'lishi asosan uch xil ko'rinishga ega ekanligi ta'kidlanadi:

ramz yuqori darajada kondensatlashish salohiyatiga ega, u o'zining zichlash usulidan foydalanib, katta miqdordagi madaniy ma'lumotni saqlay oladi hamda umumqadriyatlar va qonuniyatlarni mujassamlashtiradi;

ramz mustaqil ravishda migratsiya qilish xususiyatiga ega. U turli zaxirada turgan ma'lumotlarni qayta jonlantiradi, muayyanlashtiradi, baholaydi hamda o'tmish, hozir va kelajak o'rtasida ko'prik vazifasini o'taydi;

ramz yaqqol tarzda qayta yaratish xususiyatiga ega. U insoniyatning tasavvuri, yaratuvchanlik va bashorat qilish kuchlariga tayangan holda to'xtovsiz ravishda o'zining xotira omborini yangilab, yangi madaniy mazmunni yuzaga chiqaradi⁹.

Ramzlar obyektiv va subyektiv sabablarga ko'ra, kishilik tarixining turli davrilarida shakllangan. Ramzlarning inson faoliyatidagi ilk ko'rinishlari rang va ularni farqlash orqali yuzaga kelgan. Simvolistlar fikricha, ramz xalqning milliy-etnik kelib chiqishi, qadriyatlari va dunyoqarashiga asoslangan. Biror tushunchani yoki hodisani ifodalovchi yoki eslatuvchi shartli belgi badiiy ijod asosi hisoblangan hamda mavjud olamni bilish, tushunishda ramz vosita bo'lib xizmat qilgan.

Mazkur bobning **"Ramzlarning klassifikatsiyasi va jamiyat taraqqiyotidagi o'rni"** nomli ikkinchi bo'limida ramzlarning kelib chiqishi va rivojlanish jarayonlari, klassifikatsiyasi hamda jamiyat taraqqiyotidagi o'rni o'rganilgan.

Ramzlarning vaqt o'tishi bilan o'zgarishi, uning muhim jihatidir. Masalan, ikki xil ramzning iyerarxik munosabatlari, birinchi navbatda, uning odatiy ongdan qanchalik oddiy ekanligiga, ikkinchidan, ramz tomonidan boshqariladigan hissiy energiyaning darajasiga bog'liq. Kuchli hissiy energiyaga ega ramzlar odatda iyerarxiyada eng yuqori o'rinda bo'ladi, chunki ular ong ostiga joylashgan hisoblanadi.

Har bir soha ramzlari ma'lum ma'no doirasida tahlil va mushohada yuritishga chorlaydi. Ramzlarni turlarga ajratishda ularni tegishli sohalar bo'yicha tasniflash zarur. Shu tariqa, har bir soha o'ziga xos, san'at darajasidagi ramz shakllariga ega ekanligi aniqlanadi: umuminsoniy ramzlar – madaniyat va etnografiya sohasi doirasida, falsafiy ramzlar – falsafa va ma'naviyat sohasi doirasida, san'at ramzlari esa badiiy ijod va san'at sohasi doirasida tahlil qilinadi. Ramzlarning mantiqiy asosini to'g'ri anglash uchun har bir xalqning o'z tarixiy o'tmishi va e'tiqodiy tasavvurlari muhim ahamiyatga ega. Milliy madaniyati va ma'naviyatni millat ruhiyatiga mos tarzda saqlab qolish va uni kelajak avlodga yetkazish uchun eng avvalo umuminsoniy ramzlarga tayaniladi.

Umuminsoniy ramzlar – umuminsoniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq. Umuminsoniy qadriyatlar – jahondagi barcha odamlar, xalqlar va davlatlar uchun

⁹ Лотман Ю. Семиосфера. – Санкт-Петербург: Искусство, 2000. – С.116.

umumiy qadrlash mezonini hosoblangan, umumbashariy ahamiyatga ega bo'lgan qadriyatlar tizimini ifoda etadigan tushuncha. Umuminsoniy ramzlar jamiyat taraqqiyotining muayyan davrida yashayotgan barcha kishilar uchun umumiy bo'lgan tizimni hosil qiladi, boshqa tamoyillar bilan uzluksiz aloqada, zaruriy bog'lanishda namoyon bo'ladi.

Milliy ramzlar milliy ruhni hamda milliy va azaliy qadriyatlarni asrab qoluvchi asosiy kuch manbai. Ma'lumki, muayyan elat, millat yoki xalqning hayoti, turmush tarzi, tili, madaniyati, ma'naviyati, urf-odatlari, an'analari, shuningdek, uning o'tmishi va istiqboli bilan uzviy bog'liq bo'lgan milliy qadriyatlarni asrab-avaylashda, avvalo, milliy ramzlar muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, do'ppi – milliylik ruhini o'zida mujassam etgan, o'zbek xalqining etnomadaniy o'ziga xosligini ifodalovchi muhim madaniy ramzlardan biridir. Bundan tashqari, adras, atlas va beqasam gazlamalari o'zbek xalqining milliy liboslari tizimida muhim ramziy-ma'naviy ahamiyat kasb etadi.

Milliy ramzlar qatorida davlat ramzlari ham o'zining salmoqli o'rniga ega bo'lib, xalqimizning buyuk davlat barpo etish g'oyasi, salohiyati va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqligi, eng avvalo, davlat ramzlari va timsollarida o'z ifodasini topgan. Shu bois, ajdodlarimiz hayotida ramzlar va timsollar juda e'zozlangan. Davlat ramzlarida xalqning azaliy orzulari, ezgu niyatlari, hayot mazmuni aks etadi.

Falsafiy ramzlar insoniyatning turli dunyoqarashlari asosida shakllanib, tabiat unsurlari, ranglar, kosmik jismlar va tirik mavjudotlar orqali inson tabiati va ruhiyatini ifodalaydi. To'rt unsur – yer, suv, havo va olov inson jismi va ruhiy holatlari bilan uzviy bog'langan. Tabiat unsurlari ramziy ma'noga ega bo'lib, masalan, olov – kuch, poklanish va ehtirosni, suv – hayot, poklik va abadiylikni, yer – barqarorlik va hosildorlikni, yulduz va sayyoralar esa inson taqdiri va koinot tartibini anglatadi. Shuningdek, bu ramzlar turli diniy, mifologik va falsafiy qarashlarda inson va koinot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ifodalaydi.

San'at ramzlari – badiiy jihatdan mukammal bo'lib, uni idrok etishda o'ta nozik, estetik did talab etiladi. Badiiy ijod sohasidagi ramzlar ko'plab san'at turlarini o'z ichiga oladi. Ulardan teatr san'ati, musiqa, adabiyot, tasviriy san'at va hokazolar shular jumlasidan. Teatr san'ati tomosha turlari ichida murakkab sintetik ijod bo'lib, undagi turfa xil ramzlar umumiy badiiy obrazlilikni tashkil etadi. Teatr sahnasida – borliq va insoniyat dunyosining ramzlari gavdalanadi. Musiqa san'atining ramziy ma'noda tovushlar, ohanglar ifodasi belgilarda mujassamligi barchaga ma'lum. San'at turi bo'lgan adabiyot ham muhim ahamiyatga ega. Badiiy adabiyotda poetik ramzlar badiiy obrazlar orqali, so'zdagi shartlilikni namoyon etadi. Ranglar tasviriy san'atning asosiy qurolidir. Tasviriy san'at ramzi sifatida kamalakning yetti xil rangi aks etgan palitraning mo'yqalami bilan birga tasvirlanishi bilan ifodalanadi.

Bundan tashqari, hududiy korxonalar, tijorat tashkilotlari hamda jismoniy shaxslarning mavjudligini jamiyat tomonidan tan olinishi va identifikatsiya qilinishini ta'minlovchi muhim vizual belgi sifatida logotiplar keng qo'llaniladi. **Logotip** vositasida tashkilot yoki shaxsning mohiyati, asosiy qadriyatlari hamda imiji konseptual va ramziy shaklda ifodalanadi. Shu sababli, logotip grafik ramzlarning alohida ko'rinishi bo'lib, u estetik va ma'naviy mazmunga ega ramziy shakl

hisoblanadi. Sababi – logotip vizual tilda ma'lumot beruvchi, belgilar yordamida muloqotni ta'minlovchi ramzdir. Ramzlar tizimi inson tafakkurining ifoda vositasi sifatida jamiyat madaniyatida muhim o'rin tutsa, logotip – ushbu tizimning zamonaviy shakli bo'lib, u nafaqat estetik qiymatga, balki semantik (ma'no) yuklamasiga ham ega. Shu sababli, logotipni ramzlarning grafik turi sifatida alohida ilmiy kategoriyaga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Dissertatsiyaning **“Badiiy madaniyat sohasidagi ramzlar va ularning ifodasi”** deb nomlangan ikkinchi bobi ikki bo'limdan iborat bo'lib, ushbu bobning **“Badiiy madaniyat sohasida ramzlarning mafkuraviy-g'oyaviy mohiyati”** nomli birinchi bo'limida badiiy madaniyat sohasida ramz, belgi, emblemalarning mafkuraviy-g'oyaviy mohiyati o'rganilgan. O'zbek badiiy madaniyatida ramzlarning ifoda shakllari boy va rang-barangdir. Xalq og'zaki ijodida, tasviriy va amaliy bezak san'ati, adabiyot, musiqa, kino va teatr sohalarida ramzlar turli vazifalarni bajaradi. Adabiyotda ramziy obrazlar inson ruhiyatining ichki dunyosini yoritadi. Badiiy asarlarda ramziy obrazlar orqali milliy o'zlik, ozodlik va insoniy qadriyatlar ifodalanadi. Badiiy ijodda shoir yoki yozuvchi konkret tasviriy so'zlardan foydalanganda ham, predmetning ko'zga ko'rinadigan qiyofasini emas, ramziy assotsiativ aloqadagi mazmuniy ko'rinishini yaratadi. So'zda ifodalangan ramz obrazning mohiyatini oydinlashtiradi, shaklan yorqinlashtiradi, mazmunan chuqurlashtiradi, hissiy ta'sirchanligini kuchaytiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, ramziy obraz asarning badiiylilik darajasini, serjiloligi va ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Badiiy madaniyatda ramzlar inson tafakkurining ijodiy ifodasi, madaniyatning semantik yadrosi sifatida qaraladi. Ular orqali jamiyatning estetik ideallari, axloqiy qadriyatlari, diniy va falsafiy dunyoqarashi namoyon bo'ladi. Ramzning ifodasi esa nafaqat shakliy, balki ma'naviy-ruhiy, estetik tajriba orqali anglanadigan murakkab jarayondir. Ramzlar badiiy madaniyatni yagona ma'nolar tizimiga birlashtiradi va uni har bir tarixiy davrda yangicha talqin etish imkonini beradi. Shu bois, ramzshunoslikni o'rganish badiiy madaniyatning mohiyatini anglashda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, ramzlar xususiyatiga ko'ra o'zidan axborot tarqatadi. Ularda tasvirlangan muayyan shakl qayerda va qay holatda turishidan qat'iy nazar, inson ongida ma'lum bir fikr uyg'otadi. Masalan, dunyoning istalgan davlatida qizil xoch belgisi u yerda tibbiy xizmatning mavjudligidan dalolat beradi. Buning uchun o'sha davlatning tilini bilish shart emas. Shu jihatdan ramzlarning g'oyaviy-badiiy imkoniyat darajasi keng.

O'zbek davlatchiligi tajribalarining va madaniyatining ajralmas qismi sifatida paydo bo'lgan davlat ramzlaridan foydalanish munosabatlari Amir Temur davlatida yuksak darajalarga ko'tarildi. Davlatning qudrati, hududiy birligi, yaxlitligi va daxlsizligi masalalari Amir Temur faoliyatining diqqat markazida turgan¹⁰. Amir Temurning suveren hokimiyatini ifodalagan davlat boshlig'ining ramziy bayrog'i va tamg'asi davlat hokimiyati belgisi sifatida mamlakat hududidagi oliy iroda subyektini

¹⁰ Таджикханов У. Закон. Человек. Государство. – Ташкент: Шарк, 1997. – С.151-157.

ifodalash maqomiga ega bo'lib, uning qo'llanilishi huquqiy odatlar va tuzuklarda o'z aksini topgan me'yorlar bilan belgilangan. Amir Temur tamg'asi – bir-biriga tutashgan uch halqa tasviri Amir Temur va Temuriylar davlatining to'q havorang davlat bayrog'ida tushirilganligi ayrim ilmiy risolalarda qayd qilinadi¹¹. Bu tasvirning davlat bayrog'i emblemasiga tushirilishi Temur davlatining yer yuzidagi uch iqlim, ya'ni Shimol, Janub va G'arb hududlarini o'z suvereniteti ostiga olgan davlat ekanligini ifodalar edi. Ispaniya elchisi Rui Gonsales de Klavixoning yozishiga qaraganda, Amir Temur buyrug'i bilan bu tasvir uning davlatida zarb qilingan tangalarda, davlat muhrlarida va umuman, davlat boshlig'ining farmonlari bilan tayyorlangan barcha buyumlarda tushirilgan. O'zbekiston tarixi davlat muzeyining fondida saqlanayotgan ko'pgina arxeologik topilmalar uch halqa tasviri Amir Temur va Temuriylar davlatining davlat bayrog'i va tamg'asining asosiy elementi bo'lganligini isbotlaydi¹². Amir Temur davrida shakllangan davlat bayrog'i va gerbidan foydalanish tajribasi uning vorislariga meros qoldi. Uning davlat hokimiyati va boshqaruvini tashkil qilishda ramzlardan foydalanish tajribasi, ayniqsa, bugun suveren o'zbek davlatchiligi an'analari tiklanishi jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.

Badiiy madaniyatdagi ramzlar – mafkuraviy g'oyalarni estetik shaklda yetkazadi, jamiyat ongini shakllantiradi, qadriyatlar tizimini mustahkamlaydi hamda ijtimoiy tanqid va yangilanishga turtki beradi. Shu sababli ramzlar badiiy madaniyatda mafkuraviy-g'oyaviy ta'sirning eng kuchli va nozik vositalaridan biri hisoblanadi.

Mazkur bobning ikkinchi bo'limi **“San'at sohasidagi ramzlar va ularning shaxs tarbiyasidagi o'rni”** deb nomlanib, unda ma'lum san'at turlarining o'ziga xos ramziy ifoda vositalari, ularning mazmun-mohiyati hamda inson ruhiyati va tafakkuriga ta'siri yoritiladi. Xususan, badiiy adabiyot, teatr, musiqa, kino, tasviriy va amaliy san'at turlarida qo'llaniladigan ramzlar nafaqat estetik zavq uyg'otishi, balki shaxsning ma'naviy-axloqiy kamolotiga xizmat qilishi asoslab beriladi. Ramzlar orqali beriladigan chuqur ma'no va g'oyalar insonni mushohada qilishga, voqelikni kengroq anglashga undaydi, natijada esa unda mustaqil fikrlash, hissiy sezgirlik va estetik did shakllanadi. Shu jihatdan qaraganda, san'atdagi ramziy ifodalar tarbiya jarayonining muhim vositalaridan biri sifatida namoyon bo'lib, ular orqali jamiyatning qadriyatlari, urf-odatlari va ma'naviy merosi avlodlardan avlodga uzatiladi.

Teatr san'ati jonlilik va ta'sirchanlik xususiyatlari orqali insonlarning badiiy-estetik didini shakllantiruvchi muhim ijtimoiy-madaniy omildir. Undagi ramziylik tomoshabin tafakkurini rivojlantirib, asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Sahnadagi ramzlar rejissyor va rassom hamkorligida yaratilgan dekoratsiya hamda ssenografiya orqali ifodalanib, makon, vaqt, qahramon ruhiyati va muallif g'oyasini ochib beradi. Shu bois teatrda ramz dramaturgik matn bilan sahnaviy ifoda o'rtasida muhim ko'prik vazifasini bajaradi.

O'zbekiston hududida amaliy san'at qadimgi davrlardayoq rivojlangan. Arxeologik topilmalar sopol buyumlar, metall bezaklar va matolarda ramziy tasvirlar

¹¹ Azimov E., Ashrafxo'jayev F. Amir Temur davlatining ramzlari // Tafakkur. – Toshkent, 1996. – №3. – B.42-43.

¹² Alimov U. Amir Temur davlati ramzlari // O'zbekiston adabiyoti va san'ati, 1996. 27-sen.

mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Amaliy-bezak san'atida ko'pincha quyosh, aylana, o'simliksimon naqshlar va geometrik shakllar tasvirlangan. O'simliksimon naqshlar – tabiat uyg'unligi, hayot davomiyligini, geometrik naqshlar – tartib va mukammallik, himoya va baraka ma'nolarini bildiradi¹³.

O'zbekiston tasviriy san'ati xalqimizning tarixiy xotirasi, ma'naviy qadriyatlari va estetik tafakkurini aks ettiruvchi muhim madaniy merosdir. Tasviriy san'at (rangtasvir, miniatyura, grafika, haykaltaroshlik) asarlarida ramzlar alohida o'rin tutadi. O'zbekiston tasviriy san'atida ramziy obrazlar qadimiy devoriy rasmlardan tortib zamonaviy rangtasvir asarlarigacha davom etib keladi. Mustaqillik yillarida o'zbek tasviriy san'atida milliy qadriyatlarga murojaat kuchaydi. Vatan, tarix, ona zamin va ajdodlar siymosi ramziy talqinda tasvirlana boshlandi. Rangtasvir san'atida ramzlar orqali milliy o'zlik anglanadi, tarixiy xotira tiklanadi, ma'naviy qadriyatlar targ'ib qilinadi.

Musiqqa inson ruhiyatiga ta'sir etuvchi san'at turi bo'lib, o'zida chuqur ramziy mazmunni ham mujassam etadi. O'zbek musiqqa san'atida ohang, maqom, ritm va matn orqali xalqning turmush tarzi, urf-odatlar hamda dunyoqarashi ifodalanadi. Xususan, Shashmaqomdagi maqomlar inson ruhiy holatini ramziy aks ettiradi. Masalan, "Buzruk" maqomi salobat va ulug'vorlikni, "Rost" esa barqarorlik va poklikni ifodalovchi ohang sifatida talqin etiladi¹⁴. O'zbek musiqqa san'atida ramzlar chuqur ma'naviy va estetik ahamiyatga ega. Ramzlar musiqqa asarining badiiy qiymatini oshirib, tinglovchining ruhiy olamiga ta'sir etadi. Shu bois o'zbek musiqqa san'atidagi ramzlarni o'rganish milliy madaniyatimizni chuqur anglash va uni asrab-avaylashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Kino san'ati jamiyat hayoti, ma'naviy qadriyatlari va tarixiy jarayonlarni aks ettiruvchi muhim madaniy hodisa bo'lib, O'zbekiston kinematografiyasi milliy tafakkur va estetik qarashlarni ifodalovchi boy merosga ega. Filmlarda ramzlardan foydalanish mazmun va g'oyaviy qatlamni chuqurlashtirib, tomoshabinga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Ramzlar badiiy hamda kommunikativ vosita sifatida tomoshabin tafakkurini faollashtirib, film mazmunining ko'p qatlamli bo'lishiga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning **"Ramzlarning ijtimoiy-madaniy ahamiyati"** nomli uchinchi bobi ikki paragrafdan iborat. Mazkur bobning birinchi paragrafi **"Jamiyat taraqqiyotida ramzlarning o'рни, ularning ijtimoiy-madaniy ahamiyati"** deb nomlangan bo'lib, unda milliy ramzlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyoj va ularning milliy birlikni mustahkamlashdagi ahamiyati, jamiyat taraqqiyotida davlat ramzlarning o'рни, ularning ijtimoiy-madaniy ahamiyati sotsiologik tahlil qilingan.

Jamiyat taraqqiyoti murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, unda siyosiy, iqtisodiy hamda ijtimoiy omillar bilan bir qatorda ma'naviy-madaniy qadriyatlar ham muhim o'rin tutadi. Ayniqsa, davlat ramzlari ushbu qadriyatlarning muhim tarkibiy qismi sifatida jamiyatni birlashtiruvchi, fuqarolarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantiruvchi va milliy o'zlikni anglashni mustahkamlovchi vosita vazifasini bajaradi. Davlat ramzlari jamiyat taraqqiyotida muhim ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida namoyon bo'lib, ular davlat mustaqilligi, suvereniteti hamda milliy o'ziga

¹³ Bulatov S., Shabaraton P., Rasulov M. Naqqoshlik. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2010. – B.157, 160.

¹⁴ Madrimov B. O'zbek musiqqa tarixi. – Toshkent, 2015. – B.37.

xoslikni ifodalovchi timsollar majmuasini tashkil etadi. Mazkur ramzlar – davlat bayrog‘i, gerbi va madhiyasi – davlat mustaqilligini shartli ravishda ifodalash bilan birga, uning siyosiy tuzumi, xalqning mentaliteti, iqtisodiy asoslari va boshqa muhim xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi. Shu jihatdan, ramz tili nafaqat inson tafakkurining shakllanish jarayonida, balki jamiyatning uzoq tarixiy tajribasini anglash va tahlil etishda ham muhim nazariy hamda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Davlat ramzlari ko‘p ming yillik tarixga ega bo‘lib, milliy davlat qurilishi va madaniy rivojlanish tarixi bilan bog‘liq. Jumladan, bu ramzlar mazkur davlat fuqarolariga go‘yoki ruxsatnoma yoxud hujjat hisoblangan. Davlat ramzlari – o‘ta muayyan tushuncha. Uchta ramz – davlat bayrog‘i, davlat gerbi va davlat madhiyasi davlatni bildiradi. O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i – mamlakat davlat suverenitetining ramzlaridan biridir. U bugungi O‘zbekiston sarhadida qadimda mavjud bo‘lgan davlatlar bilan tarixan bog‘liqligini anglatadi hamda mamlakatning milliy-madaniy an‘analarini o‘zida mujassamlashtiradi.

“O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida O‘zbekiston Respublikasining Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 5-moddasida O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘ining huquqiy maqomi mustahkamladi. Bu quyidagi jihatlar bilan ahamiyatlidir:

avval davlat bayrog‘i va boshqa ramzlar “faqat davlat organlari, diplomatik vakolatxonalar va rasmiy tadbirlarda” qo‘llanilishi odatiy edi. Ammo so‘nggi qonun bilan, bayroqni ilish va ishlatish bo‘yicha rasmiy cheklovlar yengillashtirildi, fuqarolar va yuridik shaxslar uchun ko‘proq imkoniyat yaratildi;

bayroqning ishlatilish doirasi kengaytirilib, tashqi ko‘rinishda – jamoat joylari, binolar, transport vositalari ichida ham ruxsat berildi. Bu jarayon bayroqni jamiyat hayotida ko‘proq ko‘zga ko‘ringan ramzga aylantirishga xizmat qiladi;

shu bilan birga, davlat bayrog‘iga nisbatan hurmatsizlik hollari ham qonun tomonidan aniq belgilandi – yirtilgan, ifloslangan, noto‘g‘ri joylashtirilgan bayroq ishlatish huquqiy cheklovlarga olib keladi¹⁵.

Bayroq nafaqat davlat ramzi, balki **millatni jipslashtiruvchi, birlashtiruvchi va safarbar etuvchi** kuchli ijtimoiy vosita hisoblanadi. Aslida odamlar bir-birini shaxsan tanimasalar ham, o‘zlarini bir jamiyatga, bir millatga mansub deb tasavvur qilishadi. Milliy identitetni shakllantiruvchi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, bayroq odamlarning o‘zini millat a‘zosi sifatida his qilishini kuchaytiradi. Bayroq turli etnik, diniy va ijtimoiy guruhlarini umumiy maqsad atrofida birlashtirib, milliy identitet va ijtimoiy hamjihatlikni mustahkamlaydi. Shu bois uni ta’lim, madaniyat, sport va siyosiy faoliyatda keng qo‘llash millatni birlashtirish hamda jamiyatni harakatga undashda muhim vosita hisoblanadi.

Ramzlar nafaqat ichki ijtimoiy birlikni mustahkamlovchi omil, balki xalqaro maydonda davlatning o‘ziga xosligini namoyish etuvchi muhim identifikatsiya vositasi ham hisoblanadi. Ayniqsa, davlat ramzlari qatorida gerbning shakllanishi mustaqil davlat qurilishining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib, milliy davlatchilikning

¹⁵ O‘zbekiston Respublikasining Davlat bayrog‘i to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasining qonuni <https://www.lex.uz/acts/100122>

